

## XIZMATLAR KO'RSATISHGA (ISHLARINI BAJARISHGA)

### OID SHARTNOMA №16

Bulung'ur tumani

« 28 » « oktyabr » 2022 yil

Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Bulung'ur tuman xalq ta'limgarashli 11 mukomai** (buyurtmachining nomi) nomidan Ustav asosida ish ko'rvuchi (ustav, nizom, ishonchnama) Z.Aliqulova bir tomondan va (rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi) keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **"Shijoat Quruvchi sehri"** XK (yuridik shaxsning nomi) nomidan Ustav (ustav, nizom, ishonchnama) asosida ish ko'rvuchi B.Javkanov (rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi) ikkinchi tomondan Tadbirkorlarga yuridik xizmat ko'rsatuvchi markaz (ob'ektning nomi) ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

#### I. Tariflar

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi: ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruktsiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlari, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlari;

qurilish maydoni – mazkur shartnomada (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomada bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi.

Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagisi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'Imagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnomalar narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnomada bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

#### II. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnomada shartlariga **Bulung'ur tuman Xalq ta'limgarashli 11 mukomai** bo'limiga qarashli 11 mukomai binosini isitish tizimini joriy ta'mirlash ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurish bo'yicha qurilish ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

#### III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnomada bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (24.10.2022dagi 164904-sontayyormas) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **130 087 338 (Bir yuz o'ttiz million sakson etti' ming uch yuz o'ttiz sakkiz)** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda; ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda; ob’ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o‘zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo‘lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mayjud bo‘lganda, sanab o‘tilgan o‘zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o‘rtasidagi shartnomaga qo‘srimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### **IV. Pudratchining majburiyatları**

7. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo‘limida **nazarda** tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga 1-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o‘zining kuchlari va/yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartlariga muvofiq topshirish;

1-ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to‘g‘risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o‘tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo‘yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta‘minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o‘rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish;

mazkur shartnoma bo‘yicha ob’ektni foydalanishga qabul qilib olish to‘g‘risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o‘ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo‘shatish;

qurilish maydoni qo‘riqlanishini ta‘minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo‘yicha barcha ishlarning o‘z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob’ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to‘liq mulkiy javob beradi.

#### **V. Buyurtmachining majburiyatları**

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga 1-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo‘lgan qurilish maydonini ob’ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo‘lgan davrda dalolatnoma bo‘yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta‘minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o‘n kun muddatda ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish;

moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnama imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ijro hujjatlari ro‘yxatini taqdim etish;  
mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

## **VI. Ishlarni bajarish muddatları**

10. Mazkur shartnomaning bahosi **130 087 338 (Bir yuz o‘ttiz million sakson etti` ming uch yuz o‘ttiz sakkiz)** so‘mni QQS bilan tashkil etadi.

“Buyurtmachi” ko‘rsatiladigan “Xizmatlar” turkumi summasining 30 foizi miqdorida 2022-yil oktyabr oyida oldindan haq to‘laydi va Ko‘rsatilgan “Xizmatlar” uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin “Xizmatlar” turkumi summasining 70 foizi miqdorida to‘loymi amalga oshiradi.

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to‘lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo‘yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqtini ishlar boshlangan kundan e’tiboran 2 kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnama bo‘yicha ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

## **VII. To‘lovlar va hisob-kitoblar**

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnama bo‘yicha ishlarni umumiy joriy qiymatining 10 foizi miqdorida, ikki oyga teng ulushlarga (oyiga 5 foizdan) bo‘lgan holda avans o‘tkazadi, bu 13 033 700 so‘mni tashkil etadi.

## **VIII. Ishlarni bajarish**

15. Buyurtmachi qurilish maydonida o‘z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlarni sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilanadigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnomalariga va ishlarni bajarishiga muvofiqligini tekshiradi.

16. Texnik auditor ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to‘siqsiz tanishish huquqiga egadir.

17. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta’minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o‘tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog‘ida paydo bo‘luvchi masalalarni hal qilish bo‘yicha yig‘ilishlarda muttazam ravishda qatnashadi.

18. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning

VI bo‘limida ko‘rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o‘z rejasi va jadvaliga binoan ob’ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

19. Pudratchi ob’ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

20. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta’minalash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

21. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to‘g‘risidagi dalolatnomasi bilan bir vaqtida Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to‘g‘risidagi hujjatlarni beradi.

22. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to‘g‘risidagi dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo‘yicha ishlarni bajarish va ob’ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

23. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

24. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarinining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

25. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

26. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

27. Alovida mas'uliyatli konstruktsiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 5 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

28. Qabul qilinadigan konstruktsiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruktsiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasini bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvni dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

29. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

30. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa,

u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligesiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

31. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnomasi 34-bandining ikkinchi xatboshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

32. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

33. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar,

asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 30 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## **IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV.**

34. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ xujjatlardagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqidabir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

35. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari ,direktori,xodimlari,agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida xarakat qilib,Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ xujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

## **X. Ishlarni qo'riqlash**

36. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

37. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

## **XI. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari**

38. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlар yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

39. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

40. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## **XII. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish**

41. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

42. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingen kundan boshlab 5 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

43. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

44. Qabul qilib olingen paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

### **XIII. Kafolatlar**

45. Pudratchi: barcha ishlari to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini; o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini; ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalari muvofiqligini kafolatlaydi.

46. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomining kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

47. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

48. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlari ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «Davarxitektqurilishnazorat» organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudga murojaat qilishini istisno etmaydi.

### **XIV. Shartnomani bekor qilish**

49. Buyurtmachi shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

50. Pudratchi ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lman sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda; Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

51. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

52. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

53. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

54. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

#### **XV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi**

55. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

56. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

57. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to'laydi.

58. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

59. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'Imagan ishlar qiymatining 10 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

60. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

61. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## XVI. Nizolarni hal etish tartibi

62. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

## XVII. Alovida sharltar

63. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtaсидаги barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

64. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alovida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

65. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

66. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtaсидаги mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahslashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

67. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

66. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

68. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

## XVIII. YAKUNIY QOIDALAR

69. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma sharltarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

70. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

71. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxdan ikki nusxada tuziladi. SHartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

72. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak

73. Shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish muddati 30.11.2022 yilgacha deb belgilandi.

**XIX Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:**

**«Buyurtmachi»**

**«Bajaruvchi»**

**«Shijoat Quruvchi sehri»XK**

(ijrochining nomi)

Manzili: Payariq tumani

Xalqobod MFY

tel\faks \_\_\_\_\_

x\r\_ 20208000204687308001

Bank nomi; Uz sanoat qurilish bank fil

MFO\_00440\_\_ INN\_ 300759605

OKONX\_61110\_\_\_\_\_

Raxbar : B.Javkanov



(imzo)

M.O.

**Bulung'ur tuman Xalq ta'lim bo'limi**

(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

Manzili; Bulung'ur shaxar

tel\faks:

sh\xv 100022860182067092100075072

Bank nomi: \_ Markaziy bank BB XKKM \_\_\_\_\_

MFO: 00014 INN: 200731249

OKONX:

Raxbar.



Z.Aliqulova

(imzo)



Moliva Vazirligi yagona G'azna hisobvarag'i

x/r 23402000300100001010

INN 201122919 MFO 00014 OKONX 97160

Markaziy bank Toshkent sh BB XKKM

# Булунғур туман халқ таълими

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

PK6880755282

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **PUDRAT SHARTNOMASI**

Bulung‘ur tuman xalq ta’lim bo‘limi "Shijoat Quruvchi sehri" XK bilan Bulung‘ur tuman Xalq ta’lim bo‘limiga qarashli 11 mакtab binosini isitish tizimini joriy ta’mirlash bo‘yicha tuzilgan umumiy summasi 130 087 338 (Bir yuz o’ttiz million sakson etti` ming uch yuz o’ttiz sakkiz) so‘m bo‘lgan pudrat shartnomasi to‘g‘risida

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Bulung‘ur tuman xalq ta’limi tomonidan 28.10.2022 yilda kiritilgan.

Ushbu shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustdagи “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasi talablariga muvofiq tuzilgan. Shartnomada belgilangan munosabatlар O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining pudrat shartnomasi to‘g‘risidagi normalar bilan tartibga solingan va taraflarning javobgarligi va nizolarni hal qilish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Bulung‘ur tuman yuridik  
markazi  
bosh yuristkonsulti:



SH.A.SHERMATOV

28.10.2022

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 164904 на приобретение 11 мактаб биносининг иссилик тизимини жорий таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 24.10.2022

Время рассмотрения 24.10.2022 16:55

Закупочная комиссия Булунгур туман ХТМФМТТЭ булими, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	DJABBAROV AZIZJON AZIMKULOVICH	Ходим	ХТБ
<b>Член комиссии</b>	SUBANOV XUSNIDDIN SHUXRATOVICH	АКТ ни жорий этиш ва ривожлантириш шўъба бошлиги	Халқ таълими бўлими
<b>Секретарь комиссии</b>	NORMATOV RABBIMQUL QO'SHQOROVICH	мутахассис	Булунғур Халқ таълими бўлими
<b>Член комиссии</b>	G'AZIYEV SODIKJON G'AYBULLAYEVICH	Таълим сифати мониторинги ва аттестация бўлим бошлиги	Халқ таълими бўлими
<b>Член комиссии</b>	MAMAYEV NE'MATILLO FARXODOVICH	бош мухандис	халқ таълими
<b>Член комиссии</b>	RAZZAQOV FARHOD MAMARAUJ O'G'LII	иктисодчи	хтб

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 24.10.2022 года № лота 164904.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 80

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	Услуга по текущему ремонту котельной и отопительной системы
Подробное описание	11 мактаб биносининг иссилик тизимини жорий таъмирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	130 337 338.00
Стартовая сумма	130 337 338.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Корхонанинг молиявий холати тугрисида умумий маълумот (Баланс, Молиявий натижা,)

Тип: Текстовое значение

Описание: тасдикланган холатда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"SAXOVOTLI TEMUR" XK	20	"SAXOVATLI TEMUR" XK Сизга шуни ёзиб маълум қиладики, Харид комиссиясига барча маълумотларни шаффоф кўриб чиқиш учун асословчи хужжатлар билан тақдим қилди. Маълумотлар юкланди.	20	Экспертная		
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	20	130087338	20	Экспертная		
ООО STROY QO'RG'ON BIZNES	20	файл прилагается	18	Экспертная		

Критерий №2 Банк ва солик идораларидан карздорлиги тугрисида

Тип: Текстовое значение

Описание: тасдикланган холатда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"SAXOVOTLI TEMUR" XK	15	"SAXOVATLI TEMUR" XK Сизга шуни ёзиб маълум қиладики, Харид комиссиясига барча маълумотларни шаффоф кўриб чиқиш учун асословчи хужжатлар билан тақдим қилди. Маълумотлар юкланди.	15	Экспертная		
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	15	130087338	15	Экспертная		
ООО STROY QO'RG'ON BIZNES	15	файл прилагается	15	Экспертная		

Критерий №3 Корхонанинг 2021-2022 йил оборот маблаги

Тип: Текстовое значение

Описание: тасдикланган холатда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"SAXOVOTLI TEMUR" XK	40	"SAXOVATLI TEMUR" XK Сизга шуни ёзиб маълум қиладики, Харид комиссиясига	30	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		барча маълумотларни шаффоф кўриб чиқиш учун асословчи хужжатлар билан тақдим қилди. Маълумотлар юкланди.				
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	40	130087338	39	Экспертная		
ООО STROY QO'RG'ON BIZNES	40	файл прилагается	30	Экспертная		

Критерий №4 Корхонанинг ишчи ходимлари ва техникалари хакида

Тип: Текстовое значение

Описание: тасдикланган холатда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"SAXOVOTLI TEMUR" XK	25	"SAXOVATLI TEMUR" XK Сизга шуни ёзиб маълум қиласиди, Харид комиссиясига барча маълумотларни шаффоф кўриб чиқиш учун асословчи хужжатлар билан тақдим қилди. Маълумотлар юкланди.	25	Экспертная		
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	25	130087338	24	Экспертная		
ООО STROY QO'RG'ON BIZNES	25	файл прилагается	25	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО STROY QO'RG'ON BIZNES	130 337 338.00	123 820 400.00 UZS	123 820 400.00	00.00	123 820 400.00	24.10.2022 11:47:47	20
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	130 337 338.00	130 087 338.00 UZS	130 087 338.00	00.00	130 087 338.00	24.10.2022 09:26:27	19.0365
"SAXOVOTLI TEMUR" XK	130 337 338.00	129 000 000.00 UZS	129 000 000.00	00.00	129 000 000.00	23.10.2022 23:34:34	19.19696

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО STROY QO'RG'ON BIZNES	70.4	20	90.4
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	78.4	19.0365	97.4365
"SAXOVOTLI TEMUR" XK	72	19.19696	91.19696

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 164904 от 24.10.2022 года на приобретение 11 мактаб биносининг иссилик тизимини жорий таъмирлаш определила победителем:

SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK  
300759605

и резервный исполнитель: "SAXOVOTLI TEMUR" XK (301630189)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	DJABBAROV AZIZJON AZIMKULOVICH	Согласен	
Член комиссии	G'AZIYEV SODIKJON G'AYBULLAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	MAMAYEV NE'MATILLO FARXODOVICH	Согласен	
Член комиссии	RAZZAQOV FARHOD MAMARAUF O'G'LII	Воздержался	Yuridik kuchga ega xujjatlar PDF shaklida ilova qilinishi lozim
Член комиссии	SUBANOV XUSNIDDIN SHUXRATOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП